



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo'rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an'analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O'zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na'tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O'zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO'BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O'RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo'jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O'zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o'rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G'allaorol tumani nurobod qishlog'i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO'RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E'zoza MIZAMOVA "Ravshan" dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO'RAQULOVA, O'zbek xalq ertaklarida "Oq" va "Qora" ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo'llangan ba'zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o'zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o'ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi "sar sila" marosimi: an'anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536



	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

**O'ZBEK VA QOZOQ TILLARIDAGI "GO'RO'G'LI" TURKUMI
DOSTONLARIDA QO'LLANILGAN QARINDOSHLIK MA'NOSINI
IFODALOVCHI SO'ZLAR.**

**WORDS EXPRESSING THE MEANING OF KINSHIP USED IN THE
"GORUGHLI" SERIES OF EPIC POEMS IN THE UZBEK AND KAZAKH
LANGUAGES.**

Dildora HUSANOVA,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NBAE8507

***Annotatsiya.** This article analyzes the words expressing kinship meanings used in the "Gorogly" epic cycle in the Uzbek and Kazakh languages. Examples were taken specifically from the "Gorogly" epic cycle in both Uzbek and Kazakh languages. Similar words in both languages were included in a table and explained from an etymological perspective.*

***Key words:** "Gorogly" epic cycle, uzbek, kazakh, common turkic, word, lexical, phonetic, folklore, kipchak, karluk.*

Turkiy xalqlar og'zaki ijodi, ayniqsa epik dostonlar, xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va til taraqqiyotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan bo'lib, u o'zbek, qozoq, turkman, ozarbayjon va boshqa xalqlarning folklorida uchraydi. Ushbu dostonlar nafaqat adabiy, balki lingvistik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Turkiy tillarning qadimgi leksik qatlamini o'rganishda "Devonu lug'otit turk" alohida o'rin tutadi. Mazkur asarda qayd etilgan ko'plab so'zlar bugungi kunda ham o'zbek va qozoq tillarida faol qo'llanadi.

Qipchoq-no'g'ay guruhiga mansub qozoq tili qadimdan qipchoq xususiyatlari aniq bo'lgan, qadimgi qipchoq tilining dialektlaridan rivojlangan mustaqil turkiy til hisoblanadi. Qarluq guruhiga kiruvchi o'zbek tili esa qadimgi qarluq dialektlari asosida shakllanib, turli davrlarda o'g'uz va qipchoq qabilalari tillarini, shuningdek turkiy bo'lmagan eron, arab va mo'g'ul tillari dialektlarini o'ziga singdirgan holda milliy til sifatida shakllangan mustaqil turkiy til hisoblanadi. Shu sababli ham xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblanuvchi dostonlarda har ikki tilda bir xil qo'llanadigan so'zlarni ko'p uchratamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O'zbek tilshunosligida Sh.Shoabdurahmonov, R.Rasulov, S.Tursunov, Z.Xolmonova, A.Rahimov, J.Xolmurotova, A.Xoliqov, M.Saparniyazova, SH.Mahmadiyev va boshqa tilshunoslar muayyan bir doston tiliga bag'ishlangan tadqiqotlarini amalga oshirdilar. Ularning samarali izlanishlari tufayli "Ravshan" [Shoabdurahmonov 1949], "Alpomish" [Rasulov, Tursunov 1981], "Shayboniyxon" [Xolmonova 1998], "Go'ro'g'lining tug'ilishi" [Rahimov 2002] kabi an'anaviy dostonlarning lug'aviy, lingvopoetik, funksional-uslubiy, sintaktik xususiyatlari tadqiq etildi. Jumanazarova G bo'lsa Fozil shoir dostonlari tilining leksik va stilistik qatlamlarini tahlil qildi [Jumanazarova 2012;10] Rahimov A Ergash Jumanbulbul o'g'li ijodida o'zbek xalq dostonlari leksikasini qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rgandi [Rahimov,2002]. Shuni ham

e’tirof etish kerakki, keyingi yillarda shakllangan tilshunoslikning lingvopoetika degan yangi yo‘nalishi tadqiqot usullaridan foydalangan tilshunoslarimiz xalq og‘zaki poetik ijodi namunalari tilining lingvopoetik xususiyatlarini o‘rgana boshladilar. Bu borada N.Mahmudov, I.Yormatov, M.Yoqubbekova, G.Jumanazarovalar ilmiy izlanishlari tahsinga loyiqdir [Xoliqov 2014; 6].

Muhokama va natijalar

Har bir tildagi so‘z bu shunchaki nom emas, balki balki o‘sha xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi, madaniyati, tarixiy tajribasining aksidir. Til orqali odamlar borliqni qanday ko‘rishini, nimani muhim deb bilishini va qanday tafakkur qilishini bilish mumkin. O‘zbek va qozoq xalqlari ham aynan bir turkiy qavm hisoblanadi. Shu sababli ham ularning leksikasida ko‘plab o‘xshash so‘zlarni uchratamiz. Buni ko‘plab turkiy xalqlarda birdek mavjud bo‘lgan “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari misolida tahlil qilamiz.

T/r	O‘zbek tilidagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qarindosh-urug‘chilikni ifodalovchi so‘zlar.	Qozoq tilidagi “Ko‘ro‘g‘li” turkum dostonlarida qarindosh-urug‘chilikni ifodalovchi so‘zlar.
1	ona	ана
2	ota	ата, әке
3	xotin	қатын
4	yanga	жеңе
5	o‘g‘il, ul	ұл
6	bola	бала
7	qiz	қыз
8	ayol	әйел
9	farzand	перзент
10	checha	шеше
11	bavur	бауырыма
12	tog‘a	таға
13	og‘ayin	ағайын
14	og‘a, aka	аға

15	Ini, uka	Ini
----	----------	-----

Rost gapir, yolg‘on so‘zni so‘zlama

Qanday elda, qaysi odam o‘g‘ilisan [G‘ur‘ug‘lining tug‘ilishi 1967; 16]?

Бар екен Раушан атты жалғыз ұлы.

Толыбай қаза жетіп өлген екен [Бабалар сөзі 2008;33].

O‘g‘il –er jinsidagi farzand. Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi asli “paydo qil-” ma’nosini anglatgan Og‘-fe’lidan - (u)l qo‘shimchasi bilan yasalgan. Dastlab “farzand” ma’nosini anglatgan, keyinchalik ma’noda torayish yuz berib, faqat “er jinsidagi farzand”ni anglata boshlagan; o‘zbek tilida ikkinchi bo‘g‘indagi u unlisi i unlisiga almashgan [Raхmatullaev 2000;499]. Ko‘rinib turganidek har ikkala asarda ularning ma’nolari aynan bir xil, ya’ni farzand ma’nosida kelmoqda. Fonetik jihatdan farq qilsa-da, o‘zbek tilining qipchoq shevalarida va xalq dostonlarida ul variantini ham uchratamiz.

Ota-onang o‘lgandayin bo‘zlaysan,

Ot boshini picha to‘xtat bekbachcha [G‘ur‘ug‘lining tug‘ilishi 1967;15]!

Ата-анаңнан жетім қалдың жасырақ,

Қолыма алып бала еттім асырап [Бабалар сөзі 2008;49].

Ona – “xotin kishi o‘z tuqqan bolasiga nisbatan”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu so‘z ana tarzida talaffuz qilingan, o‘zbek tilida bu so‘z boshlanishidagi a unlisi o unlisigan almashgan [Raхmatullaev 2000; 259].

Ota – “erkak kishi o‘z farzandiga nisbatan”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu so‘z ata tarzida talaffuz qilingan; o‘zbek tilida bu so‘z boshlanishidagi a unlisi o unlisiga almashgan [Raхmatullaev 2000;259]. Ota, ona so‘zlari umumturkiy leksemalar, shuningdek, o‘zbek va qozoq tillarida leksik-semantik jihatdan farq qilmaydi, ammo fonetik jihatdan o‘zbek tili “o” lashgan sheva bo‘lgani uchun ushbu so‘zlardagi unilardagi farqni ko‘rishimiz mumkin. Qozoq tilida esa uning aynan qadimiy varianti saqlanib qolgan.

Елінен текежәүміт сұрап жүріп,

Үйіне тағасының келіп қонды [Бабалар сөзі 2008;87].

Seni izlab kelgan odam tog‘angdir,

Meni bunda tashlab,bolam,tur [G‘ur‘ug‘lining tug‘ilishi 1967;89]

Tog‘a_– onaning aka-ukasi (uning bolalariga nisbatan). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan. Ona qarindoshlarni atash uchun maxsus “tay” old qo‘shimchasidan foydalanilgan. Deylik, “tay og‘a” – tog‘a, “tay ota” – ona tomondan bobo, “tay ona” – ona tomondan buvi, “tay äjä” – onaning opasi yo singlisi, xola va hokazo. Qirg‘iz tilida hozir ham “xola, ya’ni onaning opasi yo singlisi” ma’nosidagi “taeje” so‘zi saqlangan. “O‘zbek xalq shevalari” kitobida keltirilishicha, Namangan hududida yaqin yillargacha ham “ona qarindosh” ma’nosida “tay” so‘zi va shu so‘z ishtirokidagi “tay otə”, “tay onə” kabi so‘zlar qo‘llanilgan. “Этимологический словарь тюркских языков” lug‘atida turli turkiy tillardagi: “tayaba” (xakas: “ona tomondan bobo”), tayne (oltay: “tay ona”), “dayka” (gagauz: “day aka”), “täinäk” (shor: “ona tomondan buvi”) kabi so‘zlar keltiriladi [Севортян 1974-1989;128]. Mutaxassislarga ko‘ra, qadimgi turkiy yoki prototurk tilida “tay” (“day”) so‘zi – “ona” ma’nosini anglatgan bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, “tog‘a” ham “tay” va “og‘a” so‘zlarini qo‘shish yo‘li bilan yasalgan deb qaraladi. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” muallifi Shavkat Raхmatullayev bu evrilishni shunday ko‘rsatadi: tay + ag‘a = tayag‘a > ta:g‘a > tâg‘ä [Шавкат Рахматуллаев 2000;352].Devonu lug‘otit-turk”da bu so‘z: “tag‘ay” (تَغَاي) shaklida keltiriladi. Devon”da “tag‘ay” shaklining keltirilishi uning birlamchi ko‘rinishi “tag‘ay” bo‘lganmi yoki “tay”mi? degan savol

tug'diradi. Agar olmon turkshunosi Gerhard Dorfer mulohazalariga tayanilsa, "tag'ay" birlamchi bo'lishi ham mumkin (tag'ay > ta:ay > tay). Biz "tag'ay" shaklini turkshunoslikka oid yana bir muhim manbada uchratdik. Bu manba XIII-XIV asrlarda yevropalik missionerlar tomonidan kumonlar, ya'ni Qirim yarimorolida yashagan turkiy xalqlar, asosan qipchoqlar o'rtasida nasroniylikni joriy etish maqsadida tuzilgan lug'at – "Kodeks kumanikus"dir. Unda "abag'a" hamda "tag'ay" so'zlari uchraydi. "Kodeks"da "abag'a" – "abaga" shaklida keltirilgan va lotinchada "auunculuc", ya'ni: "amaki" deb, "tag'ay" ("tagay") esa "consanguineus", ya'ni "qondosh" deb izohlangan. Bu ikki so'zning mazkur lug'atda keltirilishi XII-XIII asrlarda "abag'a" va "tag'ay" qipchoq turkchasida faol bo'lgani va keng tarqalganini ko'rsatadi. Shu o'rinda yana bir muhim manba xususida to'xtalib o'tish joiz. Ma'lumki, XIII asrdan Misrda kelib chiqishi qipchoq turklaridan bo'lgan mamluklar hukmronligi boshlanadi va bir necha asr davom etadi. O'sha davrda turk tilini arablarga o'rgatish yoki turk tilli hukmdorlarning arab yerlaridagi hukmronligi uchun qo'laylik yaratish maqsadida bir necha turkcha-arabcha lug'atlar yaratilgan. Shunday lug'atlardan biri XIV asrda Jamoliddin at-Turkiy tomonidan bitilgan "Kitabu bulg'atul-mushtaq fiy lug'atit-turki val-qifchaq" ("Turk va qipchoq tillarini o'rganishni istovchilar uchun yetarli darajada bo'lgan qo'llanma") asaridir. Mazkur lug'atda ham "tay" ("طای") va "tay yeze" ("طای از") so'zlari keltirilgan va "tay" – "ona tomondan qarindosh" deb, "tay yeze" (tayeje) – "xola" deb izohlangan. Tay", "tag'ay" so'zlari faqat qipchoq va qarluq lahjalari emas, balki o'g'uz turkchasida ham keng tarqalgan. Faqat u o'g'uzlarda, jumladan Xorazm shevasida ham, "tay" emas, "day", ya'ni "d"lashgan shaklda, "tog'a" esa – "da:yi" deb talaffuz etiladi. Ma'lumki, qorluq va qipchoq shevalaridagi "t" tovushi o'g'uz shevalarida ko'pincha "d"ga aylanib, "g" tovushi ba'zan talaffuz qilinmaydi. Shu qoidaga ko'ra, "dayi" so'zining kelib chiqishini mutaxassislar shunday tushuntiradi: dastlab "tag'ay" so'ziga uchinchi shaxs egalik qo'shimcha "i" qo'shib "tag'ayi" ("tog'asi") hosil bo'lgan, o'g'uz shevalarida "t" tovushi "d"lashib, "g"ning tushib qolishi natijasida "da:yi" shakliga kelgan. "Этимологический словарь тюркских языков" lug'atida "day" o'zagidan yasalgan qator so'zlar keltiriladi: "да:йы" – "tog'a", "дайка" (дай+ака) – "tog'a", "дайза" (дай+эжа) – "xola", diyaza, diyeze, deyeze, dēze – bularning hammasi "xola" ma'nosida [Севортян 1974-1989;127].

Аңнан келсе үйінде жоқ қатыны.

Алла қосқан ақиреттік жақыны [Бабалар сөзі 2008;94].

Xotin – "ayol", "erga tekkan ayol". Bu ot qadimgi turkiy tilda qatun, xatun tarzida talaffuz qilingan. Devonda esa faqat qatun shakli keltirilgan. L.Z.Budagov bu so'zning qatun shaklini qirg'izcha deb belgilaydi, xatun so'ziga tengligini ko'rsatadi, lekin izohlamaydi; oltoy tilida qattin shaklida ishlatilishini, ko'plikda qadittar shaklini olishini ta'kidlaydi. Qirg'iz tili lug'atida bu so'z qatin tarzida, turk tili lug'atida esa xatun tarzida berilgan. Yuqorida keltirilgan izohlar asosida bu so'zning tovush jihatidan o'zgarishini quyidagicha ko'rsatish mumkin: qatun > xatun xatin. Yuqoridagi manbalarda ta'kidlanishicha, bu so'z dastlab yuqori martabali kishining umr yo'ldoshi ma'nosini anglatgan; ma'no taraqqiyoti natijasida umuman biror erkak kishining umr yo'ldoshi ma'nosini va boshqa ma'nolarni anglata boshlagan [Шавкат Рахматуллаев 2000;401]. Aynan qozoq tilida uning qatin shakli saqlanib qolgan va o'zbek tilida xotin tarzida o'zgarganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, umumturkiy leksika asosan lug'at qatlamida saqlanadi. Dostonlar qadimgi tilni saqlab qolgan holda o'zbek va qozoq xalqlarining tarixiy birligini va bu tillar umumiy turkiy ildizdan kelib chiqqanligini ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim

farqlar fonetik evolyutsiya boshqa tillar ta'siri (arab, fors), hududiy omillardir. "Go'ro'g'li" dostonlari umumturkiy leksikaning muhim manbasi hisoblanadi. Fonetik o'zgarishlar mavjud bo'lsa-da, ildiz birligi buzilmagan. Bu esa o'zbek va qozoq tillarining genetik yaqinligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шавкат Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000.
2. Гўрўғлининг туғилиши. – Тошкент, 1967.
3. Бабалар сөзі: жүз томдық. Батырлар жыры. 48 том. – Астана: Foliant, 2008.
4. Xoliqov A.B. Qodir baxshi dostonlari tilining leksik-stilistik xususiyatlari. Magistr..diss. – Qarshi, 2014.
5. Эстя Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. I GV томлар. – М.: 1974-1989.
6. Rahimov A.S. O'zbek xalq dostonlari lekiskasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o'g'li ijodi misolida): Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2002.
7. Xolmonova Z. "Shayboniyxon" dostoni leksikasi (Po'ltan shoir varianti asosida): Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1998.
8. Шоабдурахмонов Ш. О художественных средствах языка поэмы «Равшан»: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1949.
9. Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане «Алпамыш»: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1981.
10. Jumanazarova G. Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlari: – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012, – 10 b.

